
Oltiariq tumani

Oltiariq tumanida– Hozirgi kunda **72 ta** mahalla majud bo'lib, aholisoni **220 ming** kishini tashkil etadi. Oilalar soni **62 700 tani**, xonadonlar soni **38 600 tani** tashki etadi.

Ta'lim muassasalari haqida ma'lumot

Tumanda **47 ta** umumiy o'rta ta'lim maktabi bo'lib, ularda **37430 nafar** o'quvchilar tahsil olmoqda. So'ngi besh yilda **1 ta** texnikum va **2 ta** kasb-hunar maktablari hamda **2 ta** harbiy ta'lim maktablari tashkil etildi.

Mazkur ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan **3226 nafar** o'qituvchilarning **2 766 nafari (85.7%)** oliy ma'lumotli, **460 nafari (14.3 %)** o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilar tashkil etadi.

Tumanda hozirgi kunda **171 ta** maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ularda **12885 nafar** bolalar tarbiyalanmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalaridagi qamrov darajasi **80.1%** tashkil qiladi. (5yil oldingi qamrov darajasi **38.4%** tashkil etgan.)

Aholini uy-joy bilan ta'minlash

Oltiariq tumanida 2021 yil davomida **12 ta** ko'p qavatli uylar qurilib, **346 ta** xonadon foydalanishga topshirildi.

Oltiariq tumanida 2022 yil davomida **14 ta** ko'p qavatli uylar qurilishi va **410 ta** xonadon foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Sog'liqni saqlash bo'limi ma'lumotlari

Tumanda **8 ta** davolash profilaktika muassasalari (**1 ta** ko'p tarmoqli markaziy poliklinika, **6 ta** oilaviy poliklinika hamda **2 ta** shifoxona) mavjud.

Tumanda **24 ta** xususiy tibbiyot klinikalari hamda loyihalar mavjud. (so'ngi 5 yil ichida **12 ta** yangi tashkil etildi.)

Ushbu davolash-profilaktika muassasalarida **219 nafar** shifokor, **1400 nafar** o'rta tibbiyot hodimlari faoliyat olib bormoqda.

Aholini bandligini ta'minlash

Oltiariq tumanida 2022 yilda **Katput MMTP xududida** o'zlashtirilmagan qir-adirliklardagi **1000 ga yer** maydonida uzumzorlar tashkil etish va foydalanish uchun aholiga topshirish rejalashtirilgan. Loyixaning umumiy qiymati **100 mlrd. so'm** bo'lib, har bir fuqaroga **0.25 ga dan** yer maydoni bo'linib, **4000 ming ta** yangi dexqon xo'jaliklari tashkil etiladi. Tashkil etilgan dexqon xo'jaliklarini "Temir daftar", "Ayollar daftar" va "Yoshlar daftar" dagi ishsiz fuqarolarga ajratib berish orqali **8000 ming ta** yangi ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan. Sug'orish uchun **24 ta** tik quduq qazib, tomchilatib sug'orish yo'li orqali suv bilan ta'minlanadi. Uzumzorlar xosilga kirganda bir yilda **7.0 ming tonna** uzum xosili yetishtirilishiga erishiladi. Hozirda pudratchilar tomonidan tokzorlar qurish ishlari jadal ketmoqda. Dexqon xo'jaliklarini yuritish kooperatsiya asosida tashkil etiladi. Xar bir fuqaroga tokzorlar xarajati uchun **25 million so'mgacha** imtiyozli kredit mablag'lari **7 yil** muddatga, **3 yil** imtiyozli davri bilan xokim yordamchilarining tavsiyasiga asosan ajratiladi.

SHuningdek so'ndi besh yil ichida tumanda **Hunarmandlar markazi, Yashil hiyobon IT markazi, sport inshootlari va maydonchalari barpo etildi.** Tuman **Madaniyat markazi** qaytadan ta'mirlanib, zamon talabiga javob beradigan

450 o'rinli tadbirlar zali foydalanishga topshirildi. **15 ta** sport maydonchalari, **4 ta** sport zallari, **9 ta** davlat bog'chalari, **4 ta** davlat sherikchiligidagi bog'chalar, **122 ta** uy bo'g'chalar ochildi.